QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ QOŃÍRAT RAYONÍ HÁKIMINIŃ SHESHIMI

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI QO‘NG‘IROT TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 30 - oktabr 267-13-185-Q/23 Qo‘ng‘irot tumani hokimligi

Mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi”ga muvofiq:

1. Qo‘ng‘irot tumani hokimligi balansidagi tuman hokimining birinchi o‘rinbosariga biriktirilgan xizmat turar-joyining isitish tizimi yaroqsiz holatga kelganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ushbu xizmat uyida aniqlangan nosozliklarni bartaraf qilib, buzilgan uskunalarni yangisiga almashtirish va ta’mirlash xarajatlari uchun hisob-kitoblarga ko‘ra jami 29,0 mln. (yigirma to‘qqiz million) so‘m mablag‘ ajratish zarurligi to‘g‘risidagi hamda ushbu mablag‘ni Qo‘ng‘irot tumani mahalliy byudjet daromadlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan moliyalashtirish to‘g‘risidagi tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Kurbanovning taklifi ma’qullansin.

3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Saypnazarov) ushbu maqsadlarga zarur bo‘lgan mablag‘ni Qo‘ng‘irot tumani mahalliy byudjet daromatlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratsin.

4. Qo‘ng‘irot tumani hokimligining bosh hisobchisi (S.Qaldibaev) ajratilgan mablag‘ni belgilangan tartibda va muddatda o‘tkazib berilishini ta’minlasin.

5. Ushbu qarorning nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Kurbanovga yuklatilsin.

Tuman hokimi **B.Madaminov**